
RESPUBLIKAMIZDA AHOLINI RO'YXATGA OLISH TADBIRINI O'TKAZISH BIZGA NIMA BERADI?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5655-son Farmoniga asosan Mustaqillik yillarida ilk marotaba aholini ro'yxatga olish o'tkaziladi.

Har qanday davlatning tarixi - bu, birinchi navbatda, unda yashaydigan xalqning tarixi, aholisining soni va tarkibi, uning iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarida o'z ifodasini topadi. Aholi soni bo'yicha aniq va yaxlit ma'lumotlar aholini ro'yxatga olish asosida olinadi.

Aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish bizga nima beradi?

1. Ma'lum bir sanada aholining aniq soni (yoshi va jinsi tarkibi, fuqaroligi, milliy tarkibi (keng qamrovli), barcha aholi punktlari bo'yicha soni, oilaviy ahvoli, ma'lumot darajasi, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, aholi bandligi (kasbi va mutaxassisligi) va ishsizligi, daromad olish manbalari, nogironligi bo'yicha batafsil ma'lumot olinadi.

2. Aholi jon boshiga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda (yalpi ichki mahsulot, aholi daromadlari, sanoat mahsuloti hajmi, iste'mol mahsulotlari hajmi, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) ishlatiladi.

3. Aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi.

4. Respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda axborot sifatida foydalaniladi.

5. Statistika idoralari tomonidan tashkil etiladigan tanlama kuzatuvlarni tashkil etishda ma'lumotlar bazasi sifatida qo'llaniladi.

6. Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish ko'rsatkichlarini shakllantirish va monitoringini yuritishda xizmat qiladi.

7. Aholi punktlarining infratuzulmasini yaxshilashda, mehnat resurslaridan foydalanish va joylashtirish bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlar, dasturlarni ishlab chiqishda foydalaniladi.

8. Xalqaro tashkilotlar va foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan tahlillar uchun keng qamrovli axborotlar manbai hisoblanadi.

Bunday ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish, bandlik sohasidagi siyosatni belgilash, ijtimoiy siyosat

va aholi salomatligi bo'yicha dasturlarni yaratishda, shuningdek davlat hokimiyati organlarining vazifalarini bajarishi, fan va jamiyatni axborot bilan ta'minlash uchun zarurdir.

K. Akbarov,

2020-05-21 13:54:11